

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.Abdullayeva	
XX asrning 20-yillarda Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi	324
F.Temirov	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
I.Naimov	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
R.Rahimov	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar	337
D.A.Choriyeva	
Madaniyat sohasida oliv ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
O.V.Mahmudov	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya	353
A.A.Hakimov, B.A.Usmanov	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi	360
N.X.Choriev	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi	365

ADABIYOTSHUNOSLIK

I.Yakubov	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda	368
P.Bakirov	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani	373
I.Mannopov	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi	379
Q.Yo'ichiyev	
Anvar Obidjon lirkasida semiotik xususiyatlar	383
J.Eshonqulov	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati	388
T.Matyoquba	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
M.Qurbanalieva	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkiranush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili	399
I.Eshonqulov	
Tazkirawanislardan nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rmini anglash	405
H.Ne'matova	
Hoji Muinning "Kattaqo'rkon xotiralari" safarnomasi	413
X.A.Xaitov	
O'zbek adabiyotida lingvistika assosida kulgi uyg'otish masalasi	417
Samadi Nooria	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari	421
A.G.Sabirdinov	
Shuhrat she'rlariga bir nazar	427
S.Muminov, Z.Kamoliddinova	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalananishi	439
Sh.A.Ganiyeva	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari	443
D.Yuldasheva, S.Nishonova	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalaniishi.....	447
M.Saminjonov	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
O.Latipov	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz tillarida "dog/it/sag" zoonim so'zining konseptual talqini	454

YASSAVIYLIK ADABIYOTI TAHLILI MASALASI

ПРОБЛЕМА АНАЛИЗА ЯСАВИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

THE PROBLEM OF ANALYSIS OF YASAVI LITERATURE

Mannopov Islombek Sultonaliyevich¹

¹Mannopov Islombek Sultonaliyevich

– Farg'ona davlat universitrti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Annotatsiya

Tasavvuf she'riyati tahlil metodologiyasining mavjud emasligi asarlar mohiyatini yoritish, badiiy matn tadqiqida qator muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy hodisadir. Yassaviylik adabiyoti vakillari ijodini avtobiografik metod asosida tekshirish she'r mavzusi, xarakter va obrazlarni aniqlashda yaxshi natija beradi. Ushbu masala XVI asr yassaviylik adabiyotining yirik vakili Ubaydiy hikmatlari tahlili misolida yoritilgan. Ubaydiy hikmatlariga kontseptual yondashuv natijasida mavzu va obrazlar aniqlangan. Hikmatlar tahlilida komillik maqomlariga yuksalishni orzu qilgan solik obrazi hamda komillikka erishgan murshid obrazi aniqlangan. Ma'rifat, haqiqat kontseptsiyasi – avtobiografik metod yondashuvi asosida mavzuni teran anglash va obrazlarni aniqlash mumkinligi ilmiy isbotlangan.

Аннотация

Совершенно естественно, что отсутствие методики анализа суфийской поэзии порождает ряд проблем в выяснении сути произведений и в исследовании художественного текста. Изучение творчества представителей ясавийской литературы на основе автобиографического метода дает хорошие результаты в определении темы, характера и образов поэмы. Этот вопрос освещается на примере анализа мудрости Убайди, крупного представителя литературы Ясави XVI века. В результате концептуального подхода к хикматам Убайди были выявлены темы и образы. При анализе текста выявлены образ салика, мечтающего возвыситься до статуса совершенства, и образ муршида, достигшего совершенства. Научно доказана возможность глубокого понимания предмета и выявления образов на основе концепции просветления, истины - автобиографического методического подхода.

Abstract

It is quite natural that the lack of a methodology for analyzing Sufi poetry gives rise to a number of problems in clarifying the essence of the works and in the study of the artistic text. The study of the creativity of representatives of Yasavian literature on the basis of the autobiographical method gives good results in determining the theme, character and images of the poem. This issue is highlighted by the example of the analysis of the wisdom of Ubaidi, a prominent representative of the 16th century Yasawi literature. As a result of the conceptual approach to Ubaidi's hikmats, themes and images were revealed. The analysis of the text reveals the image of a salik who dreams of rising to the status of perfection, and the image of a murshid who has reached perfection. The possibility of a deep understanding of the subject and the identification of images based on the concept of enlightenment, truth - an autobiographical methodological approach has been scientifically proven.

Kalit so'zlar: Ma'rifat kontseptsiyasi, haqiqat kontseptsiyasi, avtobiografik metod, solik obrazi, murshid obrazi, yassaviylik adabiyoti.

Ключевые слова: Концепция марифат, концепция хакикат, автобиографический метод, образ мытаря, образ муршида, ясавийская литература.

Key words: The concept of marifat, the concept of haqiqat, the autobiographical method, the image of the solik, the image of the murshid, Yasavi literature.

KIRISH

Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" idagi asarlar turkiy xalqlar adabiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Xoja Ahmad Yasaviydan so'ng Sulaymon Boqirg'oniy, Yusuf Bayzoviy, Said ota, Zangi ota, Xubbi xoja singari mashoyixlar hikmatnavislik an'anasi davom ettirdilar. Bu adabiy hodisa "yassaviylik adabiyoti" deb nomlanib, XII asrdan boshlab XX asr boshlarigacha o'ziga xos ijodiy uslub va adabiy an'ana ko'rinishida davom etdi. Yassaviylik adabiyoti o'zbek tasavvuf she'riyatining salmoqli qismini tashkil etadi.

Yassaviylik adabiyoti namunalarini tahlil qilish jarayonida asar mavzusi obrazlarini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tasavvufiy mavzu va g'oyalar ilgari surilgan bu asarlarni shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat kontseptsiyalari ko'rinishida tasnif qilish samarali natija beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu masalani yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODLAR

Yassavylik adabiyoti vakillari asarlarini tekshirishda yo'l qo'yilayotgan ayrim nuqsonlarning asosiy sababi tasavvuf she'riyatining metodologiyasining shakllanmaganligida deb o'ylaymiz.

Masalan, Ubaydiy hayoti va ijodi yuzasidan olib borilgan ayrim tadqiqotlarda ham shunday holatni kuzatish mumkin:

“Ey rafiqim, suluk ahli sohibi asror,

Sir olamin kezmaguncha bo'lmas ermish, –

deydi shoir va “sir olamin” kezgan “sohibi asror” zotlar sifatida oshiq, orif, faqir, darvesh, va muqarrablarni namuna qilib ko'rsatadi:

Ilohimdan qurbat istab, qurb ahlidek,

Muqarrabin maqomiga yetgum kelur” [1.115].

Yuqorida ko'rindaniki, tadqiqotda baytning ma'no kaliti bo'lgan “sir olami”, “sohibi asror” birikmali atamalarning mazmunini yoritilmaydi, qo'shtirnoq ichida ko'rsatiladi xolos. Fikr va jumla shunday tuzilganki, “muqarrab” atamasi vositasida keyingi bayt tahliliga ehtiyoj sezilmaydi. Bu olimning xatosi emas, balki o'zbek adabiyotshunoslida tasavvuf she'riyatining metodologiyasi, umumiylahil andozasi va malakasi shakllanmagani tufaylidir.

Yuqoridagi Ubaydiy baytlarini avtobiografik yondashuv asosida shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat kontseptsiyalari tasnifida tajriba sifatida tahlil qilinsa, samarali natijalarga erishish mumkin. Buning uchun she'riy baytda tasavvuf ta'limotining qaysi kontseptsiyasiga tegishli mavzu yoki g'oyasi talqin qilinganini to'g'ri aniqlab olish o'ta muhim hisoblanadi:

“Ey rafiqim, suluk ahli sohibi asror,

Sir olamin kezmaguncha bo'lmas ermish.

Mazmuni: Ey do'stim, suluk ahli sir olamini kezmaguncha sir egasi bo'lolmaydi.

“Sir” so'zining lug'aviy ma'nosi yashirin, maxfiy demakdir. Tasavvuf ta'limotida esa atama sifatida botiniy olami nafsdan poklanib, ruhoniysi fanofilloh maqomiga erishgan so'fiy (sifati foni, unvoni faqir)ning avomdan yashirgan ilohiy tajallli holatidir. Bu hodisa tasavvuf falsafasining asosiy mavzularidan biri bo'lib, “vahdati vujud” deb nomlanadi. “Vahdati vujud” mojarosi Mansuri Hallojning “Anal Haq” so'zi bilan oshkor bo'ldi. Mansur Halloj IX-X asrlarda yashagan, Tur, Baydo, Basra, Bag'dod shaharlarida ta'lim oлган, olim va valiy zot edi. U aytar ekan: “Ey odamlar, “Anal Haq” (“Haqman”, Haq – Allohning go'zal ismlaridan biridir). Mening ichimda Xudo bor”. Odamlar uni tushunmaydilar va fitna bosh ko'taradi. U shunday demoqchi bo'lgan edi: “Xudoning nuri ichimdan zohir bo'lyapti, men Xudoni shu yerda ko'ryapman (botiniy ko'z bilan)”. Mansur qatl qilinmasdan avval Shibliy uning qulog'iga “Xudoning sirini kim oshkor qilsa, shunday jazolanadi”, degan edi. U qatl qilinganda har tomchi qonidan “Anal Haq” yozuvi paydo bo'lar, “Anal Haq” degan tovush chiqar edi. Chunki ruhi fanofilloh martabasiga erishgan, vujudi “Nuri Xudo” bilan to'lgan, Haqning oshiq quli edi. Junayd Bag'dodiydan bu hodisa haqida so'ranganlarida shunday javob bergen ekan: “Xudoning daryoyi ishqni zARBini ko'tarolmadi, oshkora qilib yubordi. O'sha gap bizda ham bor-ku, uni mahkam ushlaganmiz, tashqariga oshkora qilmaymiz, zARBimizni mahkam ushlaganmiz, toshib chiqqani qo'ymaymiz. Uning zarbi torlik qildi-da, toshib chiqib ketdi.” Tasavvuf she'riyatida “vahdat ul-vujud” holati va hodisasini ifodalovchi atama, ibora, ramziy timsollar tizimi shakllandi. Masalan, “Vahdat mayi”, “tavhid siri”, “jomi jam”, “jomi vahdat”, “jon ko'zgusi”, “nuqta”, “xol”, nafas va h.k... Yassaviylik adabiyoti vakillari she'riyatining haqiqat kontseptsiyasini badiiy talqinida “sirni saqlamoq” mazmuni “nafas tutmoq” iborasi vositasida ifoda etilgan:

Har kim ersa, ushbu yolga kirar bo'lsa,

Tavba qilup, hazratig'a qadam ursa.

Jamol-i zu'l-jalolini ko'rар bo'lsa,

Xoja Ahmad *nafasini tutmoq* kerak [2.94].

To'rtlikning mazmuni: Er, mard kishi tavba qilib, Haq yo'lga kirib, Allohning jamolini ko'radigan bo'lsa, tajalliy sirini saqlashi kerak.

Oshiq “Jamol-i zu'l-jalol”ni ruhiy, ya'ni botiniy ko'z bilan ko'radi. O'zbek tasavvuf adabiyotida bu masala Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida eng yuksak maqomda ifoda etilgan. Daho shoir bir necha baytda komilllik va boqiylik saroyining yo'lini chizib bergen.

1. Nafsdan tonib, riyoza bilan ruhoniyatni yuksaltmoq:

Chun riyoza raf' etib ruhoniyat,

ADABIYOTSHUNOSLIK

Salb bo'lg'och kimsadin nafsoniyat.

2. Yomon axloqni bartaraf etish bilan inson zotining buyukligini yuzaga chiqarmoq:

Bordur inson zotida oncha sharaf,

Kim yamon axloqin etsa bartaraf.

3. Vahdat me'rojiga chiqib, "Li ma'aloh" ("Alloh nurining tajalliysi") siridan xabar bermoq:

Kim qilib me'roji vahdatqa guzar,

"Li ma'aloh" sirridin bergay xabar [3.256].

Oshiq, orif, darvesh, so'fify, faqir – komil inson ruhoniyatida "Allohnning nuri tajalliysi" – zoti zuljalolning barcha ismi va sifatining namoyon bo'lish hodisasi ro'y beradi. Bu hodisa "zoti ahaddiyat" martabasida ro'y berib, "Sir sohibi" ruh olamida barcha ilohiy ism va sifatlarni mushohada qiladi va taniydi [4.911]. Allohnning asl zoti tajalliy etmaydi, balki aksi zuhur etadi. Mutasavviflarga ko'ra, Allohnning zotini anglashga inson aqli ojizlik qiladi. Ilohnning zoti haqidagi har qanday mushohada botildir. Barcha ashyo – butun borliq zoti zuljalolning qudrat, ilm, san'atining zuhuroti bo'lib, uni mushohada qilish bilan uning ism va sifatlarini tafakkur qilish mumkin. "Vahdati vujud" falsafasi asoschisi Muhiddin ibn Arabiy bu masalada oxirgi nuqtani qo'yadi: "U zoti Haq zuhurda hamma narsaning o'zidir. Uni poklaymanki, ashyoning zotlarida ashyoning o'zi emas, Balki U Udir, ashyo ham ashyo" [5.155].

Ma'lum bo'ldiki, Ubaydiyning baytida keltirilgan "sir olami" Allohnning nuri – ism va sifatlari tajalliy etgan ruhoniyat olami ekan. Baytning mazmuni quyidagicha: "Ey do'stim, suluk ahli sir olamini kezmaguncha sir egasi bo'lolmaydi. Shunday ekan, bu yo'nga kirdingmi, maqsadingga erishg'in".

Baytda xitob va tanosub san'ati faol qo'llangan. Xitob san'ati Xoja Ahmad Yassaviy she'riyatida badiiy usul darajasiga ko'tarilgan. Xoja Ahmad hikmatlarida "Ey do'star", "do'starimo", "do'star" so'zları xitoban adresatga yo'naltirilgan bo'lib, e'tiborni qaratish, mavzuning muhimligini bildirish, diqqatni jamlash kabi badiiy-stistik vazifani bajargan. XVI asrda yashab ijod etgan Ubaydiy ushbu hikmatida "Devoni hikmat"ning xitob usuli an'anasin davom ettirgan. U farqli ravishda adresatga "do'st" so'zining sinonimi bilan "Ey rafiqim" deya xitob qiladi.

Ubaydiy hikmati "Devoni hikmat"da eng ko'p qo'llangan barmoq she'r tizimining o'n ikkilik (4+4+4) turkumida o'z ifodasini topgan:

4 4 4 (5)

"Ey ra-fi-qim, / su-luk ah-li / so-hi-(bi) as-ror, 12 (13)

Sir o-la-min / kez-ma-gun-cha / bo'l-mas er-mish. 12

"Devoni hikmat"da o'n ikkilik turkumdagı she'rlar to'rtlik ko'rinishida bo'lsa, Ubaydiy farqli ravishda bayt shaklini tanlaydi. Ma'lum bo'ladiki, Ubaydiy she'riyatida hikmatnavislik an'anasing asosiy tamoyillari bilan birga shoirning o'ziga xos poetik yondashuvlari ham o'z aksini topgan.

Xullas, yuqorida tahlil qilingan bayt mavzusi tasavvuf ta'limotining haqiqat kontseptsiyasiga tegishli bo'lib, muallif nutqida Murshid obrazi namoyon bo'lgan. Chunki, tolibi haqiqatni "sir olami"ni kezish va "sohibi asror" bo'lishga chorlayotgan – Murshidning ovozi.

Tadqiqotda tahlilga tortilmagan keyingi bayt shudir:

Ilohimdan qurbat istab, qurb ahlidek,

Muqarrabin maqomiga yetgum kelur.

Mazmuni: Allohimdan qurbat istab, qurb ahlidek muqarrablar maqomiga yetgim keladi.

Qurb – yaqinlik, yaqin bo'lish, qurbat – yetishish, yaqinlashish [6.79], muqarrab – yaqin turuvchi, yaqin, hamsuhbat [7.403] ma'nolarini anglatadi.

Tasavvuf ta'limotida "qurb" atamasi suluk ahlining muqaddas hollaridan biri bo'lib, manbalarda quyidagicha tariflangan: "... solik o'zining Tangri taologa yaqinlashganini his etish holati, Xudoning huzurini bevosita sezish, Xudo nigohining tushishini ham anglatadi. Qurbni so'fiylar ko'pincha Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamning Me'roj tuni Allah huzuriga yetganlari bilan qiyoslaydilar. Rasuli Akram Me'roj kechasi turfat ul-ayn (bir ko'z ochib yumguncha) vaqt ichida yetti qavat osmondan oshib, Tangri olamiga yaqinlashdilar, yuzlari faqat Tangri tomonida bo'ldi, boshqa hech narsaga qaramadilar («Mo zog'al basaru va mo tag'o» — uning o'zi adashgani ham yo'q va sarkashlik ham qilmadi), necha o'nlab pardalar ochildi, Habibulloh bilan Tangri orasida ikki qosh orasi (yoki

ikki kamon orasi), balki undan ham kamroq masofa qoldi («Qoba qavsayn av adno»), SHunchalik yaqin masofada visol yuz berdi, Rasuli Akram Tangri bilan suhbatlashib, inoyatlar ko'rib, qaytib yerga tushdi” [8.32].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lum bo'ladiki, “qurb” – Allohga ruhiy yaqinlik holati, “qurban ahli” – Xudoga yaqin bo'lgan do'stlarining jamoasi, “muqarrabin” esa Haqqa yaqinlik maqomiga erishgan so'fiylarning unvoni ekan. Qurb hol darajalari va maqomlaridan biri bo'lgani sababli badiiy asar tahlilida ma'rifat kontseptsiyasi mavzusi sifatida tasniflash mumkin.

Hikmatda so'zlayotgan “men” so'fiylik yo'liga kirgan solik bo'lib, “muqarrabin” maqomiga yetishib, Allohga ruhan yaqinlikni orzu qiladi. Istak va orzu semantikasi hikmat pafosini tashkil etib, “kelur” radifi g'oyaviy-badiiy maqsadning ifodasi uchun xizmat qilgan. *Hikmatda komilllik maqomlariga yuksalishni orzu qilgan solik obrazi namoyon bo'lgan.*

She'riy asar “Devoni hikmat”da faol qo'llangan an'anaviy barmoq she'r tizimining o'n ikkilik turkumida bitilgan:

4	4	4	
I-lo-him-dan /	qur-bat is-tab,	/ qurb ah-li-dek,	12
Mu-qar- ra-bin /	ma-ko-mi-ga /	yet-gum ke-lur.	12

She'riy baytda ishtiqoq san'ati faol qo'llangan. Ishtiqoq – “so'zdan so'zni ajratmoq” she'r baytlarida o'zakdosh so'zlarni qo'llash san'atidir. Baytda qurban, qurb, muqarrab so'zları o'zakdosh bo'lib, ishtiqoq san'ati asosida qo'llangan.

XULOSA

Tasavvuf she'riyati, xususan, yassaviylik adabiyoti vakillari ijodini tahlil qilishda masalaning mohiyatiga umumiy emas, balki shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat kontseptsiyasi – avtobiografik metod asosida yondashuv mavzuni teran anglash uchun xizmat qiladi. Umuman, tadqiqotchi uchun mavzu tasnifi, asar obrazini aniqlashda qulaylik tug'diradi. Buning uchun tadqiqotchidan sharq mumtoz poetikasi asoslari va islom tasavvufi manbalarini puxta bilish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев М.Х. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти. Филол. фан. номз. ... дис. – Ташкент: ТАИ, 2000. (Abdullaev M.H. Ubaydi's life and literary activity. Philol. science. name ...dis. - Tashkent: TAI, 2000.)
2. BAKIRGAN KITABI. – Ankara: Aren Tanıtım Hizmetleri, 2018. (BAKIRGAN BOOK. – Ankara: Aren Promotion Services, 2018.)
3. Navoiy A. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. To'qqizinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2013. (Navoi A. Complete collection of works. Ten volumes. The ninth volume. - Tashkent: Gafur Ghulam, 2013.)
4. Erginli Z. Metinlerle Tasavvuf Terimleri Sözlüğü. – İstanbul: Kalem, 2006. (Erginli Z. Dictionary of Sufi Terms with Texts. – Istanbul: Kalem, 2006.)
5. Usmon T. Tasavvuf tarixi. – Тошкент:Istiqlol, 1999. (Usman T. History of Sufism. - Tashkent: Istiqlol, 1999.)
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. Тўрт томлик, IV том. – Тошкент: ФАН, 1985. (Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi's works. Four roofs, IV roof. - Tashkent: FAN, 1985.)
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. Тўрт томлик, II том. – Тошкент: ФАН, 1983. (Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi's works. Four-roofed, II floor. - Tashkent: FAN, 1983.)
8. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Mavarounnah – O'zbekiston, 2009. (Komilov N. Sufism. - Tashkent: Mavarounnah - Uzbekistan, 2009.)